

**N.EGAMBERDIYEVA, A.ABDURASHIDOV,  
N.MAMATOV**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA  
IJTIMOIY-MADANIY  
KOMPETENTLIKNI  
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**TOSHKENT**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

N.EGAMBERDIYEVA, A.ABDURASHIDOV, N.MAMATOVA

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA  
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI  
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

(Uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT - 2015



**UO'K: 37.018.11**

**KBK 74.202.4**

**E-18**

- E-18      N. Egamberdiyeva, A. Abdurashidov, N. Mamatova.**  
**Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi.** –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 44 bet.

**ISBN 978–9943–990–37–1**

Mazkur uslubiy qo'llanmada bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish mazmuni, turlari va pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari hamda bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish modellari va lokal-modulli texnologiyasi yoritib berilgan.

Uslubiy qo'llanma pedagogika kollejlari o'qituvchilar, talabalar va magistrantlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmadan pedagogika kollejlari o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida ham foydalanish mumkin.

**UO'K: 37.018.11**

**KBK 74.202.4**

**Taqrizchilar:**

**Shukrullo Mardonov** – pedagogika fanlari doktori, professor;  
**Begzod Xodjayev** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

*Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2015-yil 14-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978–9943–990–37–1**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

## SO‘Z BOSHI

Zamonaviy sharoitda axborotlashgan jamiyatga o‘tilishi yuksak intellektual-madaniy salohiyatli shaxsni rivojlantirishni shart qilib qo‘ymoqda. Axborotlashgan jamiyatda intellekt va yuksak bilimga ega bo‘lish milliy boylik sanalsa, hayotiy faoliyat jarayonida esa, jamiyat a‘zolaridan yuqori intellektual salohiyatga va ijodiy faollikka ega bo‘lishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so‘zlagan nutqida hozirgi kunda dunyodagi deyarli mutlaq ko‘pchilik davlatlar 2008 yilda boshlangan, global miqyosdagi yangi retsessiya to‘lqinlarini keltirib chiqarish xavfini tug‘dirayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’siri ostida qolib kelayotgan bir paytda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti ekanligini alohida ta’kidlab o‘tib, quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadilar: «Bugungi kunda umumiy e’tirofga ko‘ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo‘q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilash borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olish mumkin»<sup>1</sup>.

Prezident Islom Karimov fikrlaridan anglanadiki, bugun jamiyat rivojlanishining barcha sohalarida yuksak bilim va intellektga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash davlatimiz taraqqiyotining qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim siyosatini o‘zida aks ettiradi.

Madaniyat va uning tarkibiy qismi sifatida ta’limga bo‘lgan e’tiborning tobora ortib borishiga jahon miqyosida kuzatilayotgan bir qator omillar sabab bo‘lmoqda:

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. // «Ma’rifat» gazetasi, 2012 yil.

– yuqori rivojlanish sur’atiga ega, o’zgaruvchan, ko‘p funksiyali, zamonaviy sharoitda ijtimoiy makonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ta’lim sohasi mutaxassislarining madaniyatni darajasiga qo‘yiladigan talablarning o‘sishi;

– jamiyat hayotining barcha sohalaridagi taraqqiyot uchun kasbiy va kommunikativ jarayonlarning ma’naviy-madaniy asoslariga doir ahamiyatlilikning kuchayishi; madaniy hamda badiiy vogelikning haddan tashqari ko‘p va xilma-xil, ayni vaqtida uzlusiz axborot oqimi bilan uzviylikda rivojlanib kelayotgani, yoshlarning madaniy talab-ehtiyojlari oshib borayotgan bir sharoitda qaror topayotgani, ularning o‘ziga xosligi va ko‘p qirraliligi;

– yoshlarga axloqiy va estetik madaniyatning yuksak namunalarini o‘rgatish jarayonining samarador emasligi, jamiyatning yuksak madaniy qadriyatlari, mutaxassis-pedagog va shaxs sifatida mukammallikka intilish haqidagi tasavvurlar, qarashlarning barqaror emasligi;

– bunday sharoitda o’sib kelayotgan yosh avlodning madaniy ta’lim-tarbiyasi jarayonini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, qo‘llab-quvvatlash zaruriyati.

---

## I bob. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'zgarishlar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga, kichik mutaxassislarni tayyorlash sifatiga yuksak talablar qo'yemoqda. Chunki bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga jamiyatning eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual va ma'naviy rivojlanish omili sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu sababli mazkur ta'lim muassasalari jadallik bilan rivojlanish tavsifiga ega bo'lishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash, yangi ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-iqtisodiy talablarga doir mo'ljalni to'g'ri tanlay olishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi lozim. Chunki:

- jamiyatning rivojlanish tendensiyasi yuqoriligi va hayotning tez o'zgaruvchan sharoitlari ta'lim oluvchilarни mazkur jarayonlarga muvafqaqiyatli tayyorlashni;
- umumiy madaniy kompetentlik va o'zaro birlashtirilgan samarali harakatning kengayishi bitiruvchilardan kommunikabellik va tolerantlikni;
- global muammolarning o'sishi va kelib chiqishi yoshlardan zamnaviy fikrlashni talab etadi.

Bundan tashqari o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining hozirgi kundagi rivojlanishiga bir qancha global omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday global omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim olishga nisbatan ommaviy intilish;
- jamiyatda yangidan-yangi bilim sohalarining shakllanishi, bu esa o'zida muntazam ravishdagi fundamental ta'limning yangilanishi va to'l-dirilishini talab qiladi, sababi jamiyat va texnologiyaning rivojlanish dinamikasi jadallik bilan rivojlanib ketmoqda;
- jamiyat ehtiyojlarining va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga tegishli bo'lgan talablar – bilim olishning mazmun-mohiyati, tuzilishi, shakl va metodlarning xilma-xilligi;
- davlat tomonidan ta'limni ma'muriy boshqaruvining liberallashuvi;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ta'lim xizmatlari bozori internatsionallashuvi bilan bog'liq holdagi globallashuvi va boshqalar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimiga kiruvchi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingen kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Pedagogika kollejlari ham ana shunday turdag'i ta'lif muassasalari qatoriga kiradi. Pedagogika kollejlarida «kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi», «boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at va mehnat tarbiyasi rabbari», «tarbiyaviy ishlar katta yetakchisi» kasblari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi tizimi, shu jumladan, pedagogika kollejlarining kichik mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy yo'naliishlaridan biri sifatida ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogning kasbiy kompetentligini tarbiyalash muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzlusiz pedagogik ta'lif tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamон bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu ta'lif oluvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o'qitishni differensiallash va individuallashtirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lifni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lif tizimini rivojlantirishning yo'naliishi –bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Jahoning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'liddagi islohotlar jarayonida kasb mahorati va kasbiy layoqatni tarbiyalash muhim yo'naliish sifatida qaralmoqda. Pedagogning kasbiy kompetentligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga R.A.Mavlonova, N.N.Azizxodjayeva, F.Yuzlikayev, R.X.Djurayev, N.A.Muslimov, N.M.Egamberdiyeva, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, I.F.Isayev, E.Shiyanov va boshqa qator olimlarning ishlari pedagogik kompetentlikka bag'ishlangan. Bu mualliflar kasbiy kompetentlik shaxsiyatliishonchilik sifatlari bilan birlikda o'qituvchining kasbiy-shaxsiyatli hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrda yakdildirlar. O'z navbatida, kasbiy kompetentlik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasb mahoratini tavsiflaydi. Tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, «kasbiy kompetentlik» va «professionalizm» tushunchalari sinonimlar sifatida qaraladi. Biroq ularning mohiyatini aniqlashda farqlar bor. Mazkur tadqiqotda bu farqlar muhimdir, chunki uning tadqiqot

mavzusi pedagogik mahoratning ma'lum darajasiga ega bo'lgan mutaxassisning kompetentligini emas, balki bo'lajak kichik pedagog-mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishga yordam beradigan psixologopedagogik muammolariga qaratilgan.

Professionalizm – kasbiy faoliyatdagi vazifalarni bajarishdagi yuqori darajadagi tayyorgarlikni ifoda etsa, professional deganda, o'z kasbiga to'la moslashgan va mehnatning psixologik vositalariga ega bo'lgan inson tushuniladi. O'quvchining kasbiy tayyorgarligi – integrativ shaxs xususiyati bo'lib, uning ta'lim muassasasini tamomlagandan keyingi faoliyati samaradorligining muhim shartidir.

N.M.Egamberdiyevaning ta'kidlashicha, kasbiy yetuklik (professional-lashuv) ta'limni shunday yo'naltirilganligiki, unga ko'ra o'quvchilar tomonidan kasbiy faoliyatning qadriyatli mazmunining aniqlanishi hamda qabul qilinishi, o'quvchining o'zini mazkur faoliyatning subyekti sifatida anglashi, o'zining kasbiy rivojlanishi, shu bilan birga ish martabasidan kelib chiqib maqsadlarini rejalashtirishi va unga erishish usullariga egalik qilishi zarur bo'ladi. O'quvchilarни amaliy faoliyatga muvofiqlashtirmasdan, kasbiy o'z-o'zini aniqlash vaziyatlarini hosil qiluvchi ta'limga va o'qitish texnologiyalariga kasbiy yo'naltirilgan yondashuvlarni tatbiq etmasdan turib kasbiy yetuklik (professionallashuv)ga erishib bo'lmaydi.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug'aviy ma'nosи «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarda shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Xorijiy mamlakatlarda an'anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o'ziga xos xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijanigina (nimaga erishilishi kerak) qayd etadi.

Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Kompetentlik o'quvchi tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik o'quvchilarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik – bu o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va

malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik o'quvchilarning shaxsiy sifatlari to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ko'rindan, kompetentlik muayyan shaxs malakasini oshirish va ish-faoliyatini yaxshilashning indikatoridir. Olimlar tomonidan berilgan an'anaviy ta'riflarga ko'ra, kompetentlik – bu xodimning o'z ishini juda ham yaxshi bajarishida nimalar zarurligini aniq va ravshan qilib anglab yetishidagi bir qator standartlar majmui bo'lib, o'z ichiga malakalar, bilimlar va qator tushunchalarni qamrab oladi. Ta'rif ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi barcha ishtirokchilar o'rtasida sababiy bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatadi hamda tashqi muhit va konkret vaziyat shaxs xulqatvori, ma'naviyatini belgilovchi muhim omil ekanligini tushunish imkoniyatini beradi.

Ta'lim mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etish mumkin:

- tayanch kompetentlik (ta'limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko'ra);
- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o'quv fanlari va ta'lim bloklarining ma'lum doirligiga ko'ra);
- bitta predmet(fan) bo'yicha kompetentligi (maxsus o'quv fani doira-sida aniq va ma'lum imkoniyatga egaligiga ko'ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarни egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtayi nazardan ularni N.A.Muslimov quyidagi kompetentlik turlariga bo'ladi:

**1. Yaxlit-mazmunli kompetentlik.** Bu o'quvchining qadriyatli yo'naliishlari bilan bog'liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'mini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq kompetentlik, u o'quvchi uchun o'quv va boshqa vaziyatlarda o'zini aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. O'quvchining individual ta'lim yo'naliishi va uning hayotiy faoliyatining umumiyl dasturi ana shu kompetentlikka bog'liq.

**2. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik.** O'quvchi chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo'lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtini samarali tashkil etish usullarini bilishi.

**3. O'quv-bilish kompetentligi,** bu o'quvchining o'rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyatni elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalari kiradi. O'rganilayotgan obyektlarga nisbatan o'quvchilarni kreativ ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodiarini egallaydi.

**4. Axborot olish kompetentligi.** Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik o'quvchining o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

**5. Kommunikativ kompetentlik.** Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rinni tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruhlarda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

**6. Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik** fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash(xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

**7. Shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish kompetentligi** ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan. O'quvchi shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o'zida zamonaviy mutaxassisiga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, texnik tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi.

B.Nazarova esa, pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarni o'rganish orqali kasbiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

– **maxsus tarbiyalanganlik layoqati** – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati ;

– **ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqati** – birgalikdagi (guruhli, kooperativ) kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va, shuningdek, mazkur kasbda qabul qilingan kasbiy muloqot uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy mehnati natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik :

– **autolayoqat** – o'zining ijtimoiy-kasbiy xarakteristikalarini haqidagi adekvat tasavvur va kasbiy destruktsiyalarni yengib o'tish texnologiyalarini egallaganlik ;

– **ekstremal kasbiy layoqat** – kutilmagan murakkab sharoitlarda, texnologik jarayonlar buzilgan sharoitlarda ishlash qobiliyati.

O.Hayitov va F.Kazibayevlarning fikricha, shaxs kompetentligi «kompetentlik nazariysi»ga asosan, to'rt bosqichli jarayonni, ya'ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o'tish jarayonini o'z ichiga qamrab oladigan quyidagi psixologik holat bilan baholanadi:

1) anglanmagan kompetentsizlik bosqichi: shaxsning «men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman» darajasi;

2) anglanilgan kompetentsizlik bosqichi: shaxsning «men bilmaligim haqida bilaman» darajasi;

3) anglangan kompetentlik bosqichi: shaxsning «men nima bilishim haqida bilaman» darajasi;

4) anglanmagan kompetentlik bosqichi: shaxsning «men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman» darajasi.

Rus olimasi O.Kozireva o'z izlanishlarida kasbiy yetuklik darajalari va kasbiy kompetentlik shakllanishini qiyoslab o'rgangan. Uning fikricha, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri «anglanmagan kompetentsizlik → anglanilgan kompetentsizlik → anglangan kompetentlik» tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalarini belgilab beradi (1.1.1-jadval).

Shuningdek, kichik mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil: (1) **faoliyatni**, (2) **shaxslilikni**, (3) **motivatsiyani** tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko'rinati (1.1.1-chizma).

Yuqoridagi fikrlardan ko'riniib turibdiki, pedagogika kollejlarida kichik mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, uning samaradorligini oshirish o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish va kasbiy ta'lim jarayoniga sifat o'zgarishlari kiritish


lozimligini talab etmoqda. Bunday sifat o‘zgarishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) pedagogika kollejlarda o‘quv-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish;
- 2) pedagogika kollejlari o‘quvchilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmunimi takomillashtirish;
- 3) pedagogika kollejlari o‘quvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish;
- 4) pedagogika kolleji o‘quvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasini amaliyotga joriy etishga doir chora-tadbirlar tizimini yaratish.

**Shaxs «anglanmagan kompetentsizlik» → anglanilgan kompetentsizlik → anglangan kompetentlik» tizimidagi kasbiy kompetentlik darajasi (O.Kozirova bo‘yicha)**

1.1.1-jadval

| Kasbiy yetuklik<br>(professionalizm)ning<br>darajalari                                | Kasbiy kompetentlik darajalari   |
|---|--|
| <i>«Eng maqbub»<br/>(istiqbolli)</i>  | 9 Anglangan kompetentlik<br>(«Men nima bilishim haqida bilaman»)                               |
|   | 8 Anglanilgan kompetentsizlik<br>(«Men bilmasligim haqida bilaman»)                            |
|   | 7 Anglanmagan kompetentsizlik<br>(«Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman») |
| <i>«Eng muhim»<br/>«nomigagina»</i>   | 6 Anglangan kompetentlik<br>(«Men nima bilishim haqida bilaman»)                               |
|   | 5 Anglanilgan kompetentsizlik<br>(«Men bilmasligim haqida bilaman»)                            |
|   | 4 Anglanmagan kompetentsizlik<br>(«Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman») |
| <i>«Yashirin, ammo<br/>yuzaga chiqishi<br/>mumkin bo‘lgan»<br/>(ilmli-tarbiyalii)</i> | 3 Anglangan kompetentlik<br>(«Men nima bilishim haqida bilaman»)                               |
|   | 2 Anglanilgan kompetentsizlik<br>(«Men bilmasligim haqida bilaman»)                            |
|   | 1 Anglanmagan kompetentsizlik<br>(«Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman») |



### 1.1.1-chizma. Mutaxassis kompetensiyalari klasteri (O.Hayitov bo'yicha)<sup>2</sup>.

#### 1.2. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari

Pedagogik faoliyatning xilma-xil yo'nalişlarini tadqiq etishga doir ishlarda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish masalasi ko'plab ishlarning tadqiqot obyekti sifatida belgilangan. Masalan, F.N.Gonobolina, V.A.Kurutetskaya, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, M.O.Ochilov, N.N.Azizxodjayeva, Sh.N.Majitova, B.R.Rahimov, N.M.Ochilovalarning tadqiqotlari-da faoliyat, muloqot, pedagogik mahorat, fikrlash va pedagogik takning o'ziga xos tavsiyflari o'r ganilgan. L.M. Mitina, A.K. Markova, M.G. Davletshin, S.I. Jalilovalar pedagoglik kasbini yaxlit va rivojlanib boruvchi psixologik reallik sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi.

<sup>2</sup> Hayitov O., N.Umarova. Yoshiarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: «TURON-IQBOL», 2001. – B.78.

Pedagogik faoliyatni shakllanishi va rivojlanishini o'rganishga doir yondashuvlarni tahlil etish asosida bir nechta yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ko'plab ishlar mehnatdagi shaxsning alohida individual-psixologik o'ziga xosliklarini o'rganishga bag'ishlangan (F.N. Gonobolin, S.B. Borisenko, L.M. Mitina, M.G. Davletshin, S.I. Jalilova va boshqalar).

Ikkinchidan, ko'pchilik olimlar kasbiy faoliyatdagi yaxlit shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarni ishlab chiqqanlar. Ko'plab mutaxassislarning fikricha, shaxsiy yondashuv – kasbiy faoliyatdagi shaxsning individual o'ziga xosliklarini hisobga olishgina emas, balki eng avvalo, mutaxassis shaxsining shakllanish yo'llarini o'rganishdir (B.G. Ananov, K.K. Platonov, N.M. Egamberdiyeva va boshqalar).

Uchinchidan, qator tadqiqotchilar (A.N. Leontev, E.M. Ivanova, M.O. Ochilov, N.N. Azizxodjayeva, F.R. Yuzlikayev, SH.N. Majitova, N.M. Ochilova va boshqalar) qandaydir faoliyat turini hisobga olish asosida kasb tanlash nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlaydilar. Mazkur holatda tadqiqot predmeti sifatida bir tomonidan faoliyat subyekti sifatidagi inson tavsifi, boshqa tomonidan esa, xarakter, mazmun, faoliyat turi, obyekt yuzaga chiqadi.

O'qituvchilik faoliyati «Inson-inson» kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tamiz.

M.G. Davletshinni fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnomada) bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va b.sh.lar);

- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va b.sh.lar);

- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivotlanganligi, pedagogik takt va h.o.lar);

- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va b.sh.lar);

- muloqotga kirisha olish (kommuunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o'ziga jalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va h.o.lar);

– gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti daraasini aniqlay olish, o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natialarini tanqidiy tahlil qila olishi va b.sh.lar);

– ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o‘quvchilarни tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyat va h.o.lar)<sup>3</sup>.

E.M.Ivanov kasbiy faoliyatga individ va mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisidiy va ma’naviy o‘zaro harakati usuli sifatida qaraydi. B.G.Ananев, K.K.Platonov va M.O.Ochilovlar kasbiy faoliyatda individ va xodim shaxsini shakllantirishga ta’sir etishda o‘zaro aloqadorlikning mavjudligini qayd etib o‘tishadi.

V.A.Slastyonin «pedagoglik kasb tarbiyasi» tushunchasini quyidagicha izohlaydi: «Natijasi bo‘lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma’naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg‘ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko‘nikma, malaka, odatlarni, o‘z-o‘zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir»<sup>4</sup>.

Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta’lim natijasida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini tavsif etuvchi, hamda ularning qo‘yilishi va o‘zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta’minlovchi faoliyat turi.

Pedagogik mutaxassislik – pedagogik ixtisos doirasidagi muayyan faoliyat turi. U aniq mehnat predmeti va mutaxassisning aniq funksiyasi bilan bog‘liq.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma’lum turdagи vazifani hal etish-dagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko‘rinishi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. I.P.Podlsaiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M.Egamberdiyeva pedagogik ta’limdagи kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- kasbiy chuqur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;

<sup>3</sup> Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B.11-12.

<sup>4</sup> Сластионин В.А. Формирование профессиональной культуры учителя /Учебное пособие. – М.: Прометей, 1993.

- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo'naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik<sup>5</sup>.

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlar to'plamini talab etadi. A.V.Karpovning fikricha, kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me'yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyektining individual xususiyatidir. Uning ta'kidlashicha, kasb vazifasida faqatgina shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari olim kasbiy yetuklikning tuzilishini ifoda etuvchi inidividual sifatlar guruhini ham belgilab beradi:

- absolyut kasbiy zaruriy sifatlar – o'rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- o'zida faoliyatning yuqori va sifat ko'rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlar;
- u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik;
- antikasbiy zaruriy sifatlar – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvchi yoki biror va shunga o'xshash faoliyatda qarama-qarshi ko'rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdiyevaning fikricha esa, o'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'l shini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg'suning mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylilik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyanoblilik, xolislik;
- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;
- 4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyoj-larning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

Pedagogika kolleji bitiruvchilarasi asosan uzlusiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lган umumta'lim maktabalarida faoliyat yuritishi e'tiborga olinsa, ularning kasbiy kompetentligi mazmuni mazkur ta'lim muassasalarasi tarbiyachi-pedagoglariga qo'yiladigan kasbiy-malakaviy talablar

<sup>5</sup> Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

doirasida belgilanishi va tashkillashtirilishi talab etiladi. M.Mirsoliyeva kichik mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan amaliy faoliyat talablari doirasidan kelib chiqib, pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mazmuniga quyidagilarni kiritadi: 1) shaxsiy sifatlar; 2) ta'limi faoliyatga doir sifatlar; 3) tarbiyachi sifatidagi kasbiy sifatlar; 3) ta'lum olganlikni tashxis etish faoliyati bilan bog'liq sifatlar.

Ma'lumki, mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar oxir-oqibatda inson manfaatlarini mukammal ravishda ro'yogba chiqarish, xalqimizga farovon turmush tarzini yoritib berishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirmoqda. Ushbu vazifalarni qisqa muddatlarda muvaffaqiyatli hal qilinishi bugungi kunda nafaqat davlatimiz, balki o'zimiz yashayotgan jamiyat har bir a'zosining bu boradagi sobitqadam va ongli faoliyati bilan ham bog'liqidir. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari g'oyasining asosida aynan mana shu xalqchil mohiyat yotadi. Kuchli jamiyatni shakllantirish, avvalambor, insonning jamiyatdagi o'rnini anglab yetishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Bu o'rinda jamiyat a'zolarining intellektual-madaniy rivojlanish darajasi, ularning fikrlash doirasi, dunyoqarashining kengligi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Demak, intellektual-madaniy rivojlanish omili mamlakatimiz taraqqiyotiining bugungi kundagi dolzarb vazifalarni ro'yogba chiqarishning eng asosiy vositasiga aylandi, desak xato qilmaymiz. Shuning uchun ham intellektual-madaniy rivojlanish masalasining nazariy va amaliy jihatlariga bugungi kunda mamlakatimizda katta ahamiyat berilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lum tizimini «Yuksak umumiyl va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodni shakllantirishga»<sup>6</sup> yo'naltirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur talab oliy ta'lum muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar shaxsini kasbiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan yaxlit tarzda shakllantirishni shart qilib qo'yadi.

Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'lumni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish; ularning asosi sifatida esa milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Shu bilan birga, bugungi kunda kadrlarning kasbiy tayyor-garligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lum jarayoni «ta'luming jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda»<sup>7</sup> amalga oshirilishi lozim.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.34.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.44.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik haqida gap ketganda, eng avvalo, «ijtimoiylashuv» va «madaniyat» tushunchalarining mohiyatini aniqlab olish zarur.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui<sup>8</sup>.

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalananadi<sup>9</sup>.

«Madaniyat» atamasi hozirgi zamон ilmiy adabiyotlarida rang-barang ma'nolarda ifodalangan. «Madaniyat» va «Kultur» atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra ayni ma'noni anglatib, lotincha «kishlov berish», «parvarish qilish» ma'nosini anglatgan. Keyinchalik «ma'rifatli bo'lish», «tarbiyali», «bilimli bo'lish» mazmunida ishlataligan. O'zbek tilida keng ishlataladigan «madaniyat» atamasi arabcha «madaniy – shaharlik» degan ma'noni bildirdi. Agar amerikalik madaniyatshunos olimlar A.Kreber va K.Klaskonlarning 1952-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, madaniyat hodisasiga berilgan ta'rif 164ta bo'lsa, so'nggi adabiyotlarda bu raqam 400dan ortiqni tashkil etadi<sup>10</sup>.

G'.G.ofurov, N.Hakimov va B.Aliyevlar o'zlarining «Madaniyat va jamiyat» kitobida madaniyat tushunchasining quyidagi o'ziga xosliklarini ta'kidlab o'tishadi: «Madaniyat tushunchasida moddiy va ma'naviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalananadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlama mavjud: 1) insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati; 2) moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqish, iste'mol qilish (foydalanish) va asrash; 3) qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy a'mollarning hayotga tatbiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar. Madaniyat – faol ijodiy faoliyatdir. Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik – inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Inson ijodiy ko'nikmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo'ladi»<sup>11</sup>.

Pedagog olima Oynisa Musurmonovaning ta'kidlashicha esa, «Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Bundan madaniyat shaxs va va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan madaniy munosabatlarining paydo bo'lishi,

<sup>8</sup> Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2000. – B. 104.

<sup>9</sup> Gulmetov Z., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Mavruzov A. Madaniyatshunoslik. – T.: «O'AJBNT» markazi, 2000. – B.6.

<sup>10</sup> O'sha manba: B.8.

<sup>11</sup> Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy mohiyatni shaklantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ... diss. – T., 1998. – B.28.

rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishi, xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat»<sup>12</sup>.

Yuqoridagi ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, «Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lif, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Jamiyatdan tashqarida madaniyat yo'q. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish madaniyatga ta'sir etadi va u bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat o'tmishga yoki bugunga, shu bilan birga, kelajakka munosabatdir.

Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, insonning o'zi ham, pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Hatto aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi»<sup>13</sup>.

Shaxsning tayanch madaniyati – bu demokratik, estetik, axloqiy, milliy, ekologik, huquqiy, oilaviy, nutq, mehnat va muloqot madaniyati sifatida namoyon bo'ladigan uni turli-tuman qobiliyatlarning rivojlanish darajasini anglatadi. U insonning har tomonlama rivojlanishi, atrof-muhit sharoitida yashay olish qobiliyatini ifoda etadi va jamiyat madaniyatini o'zida aks ettiradi. Jamiyat madaniyati tarkibiga barcha obyektlar, qadriyatlar, bilimlar, estetik ongning ko'rinishlari, odamlar faoliyati va ularning natijalari, shaxs hayotiy faoliyatidagi madaniy munosabatlar, o'ziga xosliklar ham kiradi.

Tayanch madaniyat uchun bolalikdan poydevor qo'yiladi hamda ta'lif va tarbiya vositasida bu madaniyat tizimli chuqurlashtiriladi va takomillashtirib boriladi. Agar shaxsda mustaqil maqsad, o'z faoliyat mazmuni va metodlarini tanlash qobiliyati shakllantirilmasa, tarbiya bilan bog'liq barcha institutlarining harakatlari zoye ketadi.

Shunday qilib, doimiy ravishda kasbni, do'stlarni, estetik taassurotlarni, ijtimoiy nuqtayi nazarni, bo'sh vaqtini o'tkazish shakllarini tanlash oldida turgan yoshlar o'zlarining ehtiyoj va qiziqishlariga bog'liq bo'lgan yo'naliishlarni mustaqil aniqlash qobiliyatini egallashlari zarur. Bunday hayotiy mezonlarning murakkablashuviga asoslangan qobiliyatga ega bo'lмаган shaxsning tayanch madaniyati haqida fikr yuritish ham mumkin emas.

Akademik D.S.Lixachevning fikricha, «Madaniyatli inson – bu ko'p narsani tushunadigan, binobarin boshqalarga intiladigan, boshqalarni tushunadigan, boshqalarning ma'naviy hayotini «kashf etuvchi» turli davr va

<sup>12</sup> Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asosları: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. – B.48.

<sup>13</sup> Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2000. – B.104.

xalqlarning san'at asarlari bilan boyitilgan inson»<sup>14</sup>. Madaniyatli insonning muhim farqli jihatni shundaki, deb ta'kidlaydi, D.S.Lixachev, u tajovuzkorlikdan, shubhali harakatlardan, shaxsiy norasoliklar majmuidan xoli bo'ladi. Ana shunday insonni oliy ta'lim muassasasi shakllantirishi zarur.

Madaniyatni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin. Birinchisi – madaniy mero (moddiy artefaktlar, qadimgi an'analar, urf-odatlar, fanning buyuk yutuqlari, san'at, adabiyot, dinlar). Ikkinchisi – turmush tarzi. Real madaniyat shaxs, guruh, jamiyatning hayot tarzini tavsiflaydi. Yashash tarzi til, e'tiqod, maqsadlar, qadriyatlar, xatti-harakat odatlari, kiyinish uslubi, turarjoyining sifati, mehnat sharoitlari, kuzatish oldi vaqt, urf-odatlari, fe'l-atvorlar, etiket, nafaqat ushbu ijtimoiy guruhga, balki uni boshqa guruhlardan farqlovchi me'yorlar va madaniyatning boshqa unsurlarini o'z ichiga oladi.

Madaniyat o'zining tuzilishi va shakliga ega. Antropolog Uord Gudenau, madaniyatga unsurlarning to'rt turini kiritdi:

1. Tushuncha (konseptlar). Ular asosan tilda mayjud bo'ladi va kishilarga o'z tajribalarini orttirish va tartiblashtirishga yordam beradi. Biz barchamiz dunyoni predmetlarning shakli, rangi va ta'mi orqali qabul qilamiz, turli madaniyatlar o'z dunyosini turlicha tashkil etadi. Nemislar ovqatni tanovul qilish bo'yicha insonlar (essen) va hayvonlarning (fressen) orasidagi farqni tadqiq etadilar, ingliz tilida esa buning uchun faqat birgina so'z – «eat» mayjud.

2. Munosabat. Agar tushuncha dunyoni yoritib bersa (u nimadan tashkil topganini), u holda munosabat – ushbu qismlar bir-biri bilan makonda va vaqtda belgilari bo'yicha qanday bog'lanishi to'g'risidagi ma'lum tasavvurni anglatadi.

3. Qadriyatlar – ular intilish lozim bo'lgan maqsadlarga nisbatan jami maslaklar tomonidan taqsimlanadi. Qadriyatlar shubha ostida qolmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal sifatida xizmat qiladi. Agar vafodorlik qadriyat hisoblansa, u holda undan chekinish sotqinlik singari qoralanadi. Agar ozodalik qadriyat hisoblansa, u holda pala-partishlik va ifloslik nojo'ya xatti-harakat kabi qoralanadi.

Qadriyatlar guruh yoki jamiyatga, qimmatli orientatsiyalar – shaxsga tegishlidir. Qadriyatlar siz tomoningizdan boshqalar bilan hamkorlikda taqsimlangan maslaklarni namoyon etadi.

Qadriyatlar negizida yetuvchi g'oyalar, bilimlar asosi bo'lib xizmat qiladi. Bilimlar – biror bir narsa haqidagi to'g'ri ma'lumotlar, ilmiy ma'lumotlar. Bilimlar tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan ixtisoslashtirilgan faoliyat – ong natijasi bo'lib xizmat qiladi.

E'tiqod – biror-bir real yoki illyuzor g'oyaning hissiy tarafdrorligi, maslakdir. E'tiqod – nima haqiqat yoki deyarli to'g'riliqi haqidagi tasdiqdir.

<sup>14</sup> Лихачев Б.Т. Педагогика. Курс лекций. – М.: Юрай-Издат, 2003. – С.47.

Qadriyatlar esa yaxshi yoki kutilganlarga taalluqlidir. Ular o'rtasidagi farq aynan shundan iborat. E'tiqod o'z-o'zidan afsonani bilimdan farqlamaydi.

4. Inson o'z madaniyatining qadriyatlar bilan kelishgan holda yashashi uchun o'zini qanday tutishi lozimligini belgilovchi qoida va me'yorlar. Me'yorlar – bu: odatlar, etiket, qonunlar, urf-odatlar, marosimlar.

Milliy o'ziga xos rangga ega bo'lgan madaniyat komponentlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- an'analar (yoki madaniyatning barqaror unsurlari), shuningdek urf-odatlar (madaniyatning «ijtimoiy-me'yoriy» sohasida an'ana sifatida belgilangan) va marosimlar (mazkur tizimda ustunlik qiluvchi me'yoriy talablarga anglanmagan murojaat vazifasini bajaruvchi);

- an'analar bilan uzviy bog'liq maishiy madaniyat, uni ko'pincha me'yoriy talablarining ushbu tizimida ustunlik qiladi;

- kundalik xulq-atvor (ba'zi muomala sotsiumida qabul qilingan ba'zi madaniyat vakillarining odatlari), shuningdek ba'zi lingomadaniy birlik tashuvchilari foydalanadigan ular bilan bog'liq imo-ishora va pantomimik (kinestik) kodlar;

- atrof olamni idrok etishning o'ziga xosligini aks ettiruvchi «dunyoning milliy tasviri», biror-bir madaniyat vakillari fikrining milliy xususiyatlari;

- biror-bir elatning madaniy an'analarini aks ettiruvchi badiiy madaniyat.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchini tayyorlash masalasi ham umumiyl shaxsning rivojlanishi muammosi singari qarama-qarshiliklar jarayoni va natijasidir. Chunki bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllanishi ko'plab ichki, o'zaro ta'sir etuvchi mahsuldor sabablar(omillar)ni taqozo etadi. Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsuldor sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakkarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagи tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy yetuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yonda-shuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tatbiq etilishimi ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С.239.

Istalgan mutaxassisning, ayniqsa, pedagogning yosh avlodning murabbiyigligi roldan kelib chiqib, kasbi yetuklashuvi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, kasbi tufayli boshqalarga ta'siri va oxir-oqibatda jamiyatga ta'siri orqali ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismini o'zida aks ettiradi. Ijtimoiylashuv insondoning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatlari rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir<sup>16</sup>. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

- 1) shaxsnинг ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rinn tutadi (J.Piaje, A.V.Mudrik);
- 2) bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega (Z.Freyd);
- 3) shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi (J.Piaje);
- 4) shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihatni hisoblanadi (T.Persons, R.Beyla);
- 5) shaxsnинг ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsnинг ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi (R.Benedikt, M.Mid);
- 6) ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi (Z.Freyd, T.Persons, R.S.Nemov)<sup>17</sup>.

Bizning tadqiqotimiz doirasida mazkur tushunchaning mohiyati A.V.Mudrik tomonidan berilgan ta'rifa ko'proq mos keladi: «Ijtimoiylashuv – madaniyatni o'zlashtirish va qabul qilish jarayonida insondoning rivojlanishi hamda o'z-o'zini o'zgartirib borishidir»<sup>18</sup>.

Demak, ijtimoiylashuv – insondoning uning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi – insondoning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'mimi va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini anglaydigan, milliy va

<sup>16</sup> Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – Т.: Sharq, 2004. – В.173-174.

<sup>17</sup> Сластёных В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003.– Ч.1. – С.8-9.

<sup>18</sup> Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: ACADEMIA, 2006. – С.7.

umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib yetishishiga erishishdan iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa muhim buniyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafaqat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatning kelajakni oldindan ko'ra olish bilan bog'liqlikdagi tavsifi uning maqsadlari ning ko'p qirralilagini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuviningina emas, ularning faoliyat sohasini innovatsiyalanib borishini ham aniqlab beradi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsnинг jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviylashuv shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsnинг ijtimoiylashuv esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lif, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarni mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsnинг ijtimoiylashuv – ta'lif-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuv, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuvning mufassal tavsifini va uning pedagogik faoliyatdagi o'mini A.M.Stolyarenko quyidagicha keltirib o'tadi: «Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining safat xususiyatlari, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, safatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir». Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil – madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni – tarbiyalanganlik, ta'lif olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallahuv) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi – insonga fikrlovchi shaxs, o'z davlatining va jahoning fuqarosi bo'lib yetishishiga,

jamiyatda o‘z o‘rnini va xulq-atvorini, o‘z istak-maqсадларини yo‘nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagи pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo‘nalgan shaxs bo‘lishiga yordam berishdir»<sup>19</sup>.

Ijtimoiylashuv jarayonining ko‘p omilliligi va keng qamrovligini hisobga olib, kasbiy yetuklikni uning bir qismi sifatida qarash mumkin. Ilmiy-tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Har qanday pedagogik tizim ijtimoiy tizimning tarkibiy qismini o‘zida aks ettiradi, shuning uchun uning takomillashib borishi ijtimoiy rivojlanishning muhim shart-sharoiti hisoblanadi.

Sanab o‘tilgan pedagogik faoliyatning jihatlari hayotiy ehtiyojlarga qarab ish tutuvchi o‘quvchining o‘ziga xos turini yuzaga keltirgan yangi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy vaziyat munosabati bilan yangi qiyofa kasb etib boradi. Agar totalitar tuzum sharoitlarida o‘quvchida ish joyi va ish haqini kafolatlovchi davlat rejasи va dasturi asosida ta’lim olganlik asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, demokratik jamiyatda undan yangi ijtimoiy-psixologik holatga chiqish – yuqori bilim, safarbarlik, raqobatbardoshlik va turli sohalardagi tayyorgarlik talab etiladi.

Bugungi kunda uzoq muddatli barqaror afzallikning yagona manbai bilim hisoblanadi, chunki qolgan barcha narsa raqobat orqali yo‘qqa aylanadi. Ammo bilim faqat individning malakasi orqali foydalaniishi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglar bugun individualizm va mustaqillikka yo‘nalgan bo‘lishi hamda o‘z kuch-imkoniyatlaridan oqilona foydalana olishlari zarur.

Bu borada biz V.V.Serikovning tutgan nuqtayi nazarini qo‘llab-quvvatlaymiz. Uning fikricha, yuqori raqobatbardoshlik sharoitida insonning yaxlitligini saqlash va rivojlanirishni faqat ta’limgina ta’minlay oladi. Bu yaxlitlik davlatning totalitar g‘oyalariga yoki bozor raqobatining g‘alabasiga yo‘naltirilmagan, balki asos va uning barcha funksional jihatlarining manbai sifatida yosh avlodning madaniyatiga va ma’naviyatiga yo‘naltirilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli individning uning o‘z hayotida, shu jumladan, o‘z ta’limida muayyan o‘rin egallashi va subyekt sifatida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muhim shaxs (umuminsoniy) xususiyatlarining mazmuni uchun asos sifatida qaraladi.

Bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari tavsifining murakkablashuvi bilan ifodalanadi. Buning oqibatida kasbiy ta’lim hamma vaqt ham o‘quvchining kasbiy o‘z-o‘zini rivojlanirish masalasini muvafaqqiyatlari hal eta olmaydi. Shuning uchun bugungi kunda kasbiy ta’lim oldiga quyidagi vazifalar ko‘ndalang qo‘yilmoqda: o‘quvchining kelgusidagi shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining o‘zaro

<sup>19</sup> Столяренко А.М. Общая педагогика – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – С.25.

muvofiqligini ta'minlash, boshqa qo'shimcha mutaxassislik bilan qurollantirish va faoliyat sohasini o'zgartira olishiga imkon berish, shaxsiy hayotida va kasbiy faoliyatida duch keladigan ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal etishga qodirligi va hozirjavobligini shakllantirish.

Eng asosiyisi, kasbiy ta'lim shaxsning muvaffaqqiyatli ijtimoiyla-shuvining zarur sharti bo'lib xizmat qilishi lozim. Chunki pedagogika kolleji o'quvchilari tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy tanlov uning bo'lajak mutaxassis sifatidagi subyektiv nuqtayi nazarini belgilab beradi. Mazkur jarayonda ta'lim shaxsni faol mustaqil faoliyatga jaib etib, uning o'quvchi maqomini egallashi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarishi lozim.

Tabiiyki, pedagogika kollejlari qabul qilingan o'quvchi uchun yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni egallash) va mavjud imkoniyatlar, o'quv faoliyatini tashkil etishga bo'lgan munosabatlarning yangi tizimi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Kasbiy tayyorgarlik yo'lining o'ziyoq, o'quvchining ijtimoiy maqomni tez o'zgartira olishini talab etadi: oliy ta'lim muassasadagi o'qish davrining boshlanishidayoq, u o'quvchi, so'nggida esa, o'quvchi maqomini muvaffaqqiyatli o'zgartira olishi zarur. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasasi o'quvchilarining shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonini jadallashtirishi taqozo etadi.

Mazkur omillarga asoslangan holda, pedagogika kolleji o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning quyidagi vazifalarini ishlab chiqdik:

- 1) o'quvchilarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash;
- 2) o'quvchilarning hayot mazmunini ifoda etuvchi maqsadlarini rivojlantirish, ularning o'z ehtiyoj va imkoniyatlarini to'la anglab yetishlariga ko'maklashish;
- 3) shaxslararo va kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida ularni o'z o'mini aniq belgilay olish va o'z-o'zini namoyon qila olishga o'rgatish;
- 4) o'quvchilarning hayotiy faoliyatini tashkil etishda faoliyati-munosabatli yondashuvni joriy etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- 5) shaxsning odamga (o'z-o'zini xolis baholash, o'z-o'zini hurmat qilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, ekologik tafakkur) yuksak axloqiy munosabatini shakllantirish;
- 6) o'quvchilarning tashkilotchilik va boshqaruvga doir fazilatlarini rivojlantirish;
- 7) o'quvchilarni murakkab pedagogik va hayotiy vaziyatlarda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishga tayyorlash.

Shunday qilib, ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari kasbiy ta'limni bir vaqting o'zida ham shaxsning individual rivojlanishi, uning

ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ham o‘quvchining shaxsiy va kasbiy nuqtayi nazarini shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab qiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – pedagoglar tayyorlashdagi istiqbolli maqsad. Ushbu jarayonlarning muvaffaqiyati quyidagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) o‘quvchilarни faol ijtimoiy-madaniy munosabatlarga jalb etish;
- 2) birgalikdagi samarali ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida shaxsnинг o‘z-o‘zini to‘la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratish.

---

## **II bob. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPONENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY- TEXNOLOGIK JIHATLARI**

### **2.1. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish modellari**

Pedagogika va psixologiyada bo'lajak o'qituvchi faoliyatini yaxlit tizim sifatida o'rganish muhim ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Uni hal etishda, modellashtirish muhim o'rinn tutadi. «Modellashtirish tadqiqotchilik faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi turkum mohiyatini sinchiklab o'rganib chiqadi. Zero, u yakuniy model sifatida nazariyani xulosa va g'oyalalar bilan boyitadi. Demak, model-lashtirish tanlangan obyekt turkum ko'rinishida tasavvur etishga imkon beradi».

«Model» atamasi qandaydir bir tizimni (namuna, andoza) ifoda etib, uning muayyan xususiyatlarini, boshqa, haqiqiy deb yuritiluvchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi kerak va belgilangan ma'noda uni o'mini bosishi kerak<sup>20</sup>.

Bugungi kungacha bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Quyida ana shu modellarga to'xtalib o'tamiz.

**1. Ijtimoiylikka yo'naltirilgan model.** Modelning yo'nalishiga muvo-fiq holda, o'quvchilar uchun barcha ahamiyatli – intellektual, mazmunli-qadriyatli, rag'bat, hissiy, irodaviy, o'z-o'zini boshqarish, amaliy-predmetli, ekzistentsial sohalardagi rivojlanishni ifodalovchi pedagogik faoliyatning mazmuni aniqlanadi.

Intellektual sohada kasbiy bilimlarning, ko'nikmalarning, mustaqil bilish-izlanish faoliyatining hajmi, teranligi, amaliyligi oshib bordi, egallangan pedagogik faoliyat usullarini yangi vaziyatlarga, yangi holatlarga ko'chira olishga odatlanish, tahlil qilish, tizimlashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qobiliyatlilik rivojlanib boradi.

Mazmunli-qadriyatli sohada o'qituvchi shaxsi va faoliyatining axloqiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish, pedagogik jamoada o'zini tutish qoidalari, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarni

<sup>20</sup> Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – С.12.

o'rnatish, shaxs uchun ahamiyatli ma'naviy va kasbiy qadriyatlarni egallash borasidagi ishlar amalga oshiriladi.

Rag'bat sohasida hayotdagi individual maqsadlar va ularni ma'nosini aniqlash asosida kasbga bo'lgan ijobjiy motivlar va rag'batlar, o'z kasbiga nisbatan mas'uliyatli munosabat, shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish rivojlanadi.

Hissiy sohada boy tarzdagi ijtimoiy, axloqiy, estetik tuyg'ularni, hissiy-psixologik moslashuvchanlik, empatiya, jonkuyarlik, ishonch, o'zini sevish hissini rivojlantirishga, murabbiyning o'quvchi bilan muloqotidagi to'g'ri hissiy holatni shakllantirishga hamda mustahkam rag'batni shakllantirish maqsadida shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishdag'i ahamiyatli fikrlar, maqsadlar, vazifalar va munosabatlarni uzoq muddatli, turg'un, ijobjiy emotsiyalar bilan to'ldirishga alohida e'tibor qaratildi.

Irodaviy sohada kasbiy o'y-maqsadlarni amalga oshirishda axloqiy-irodaviy ishtiyoq, faoliyk, mardlik, dadillik, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga talabchanlik shakllantirildi.

O'z-o'zini boshqarish sohasida zaruriy ravishda kasbiy-ijtimoiy haqqoniyilik, vijdoniylilik, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini tanqid qila olish, o'z xulq-atvorini boshqalar bilan solishtira olish, o'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya va boshqa xislatlar shakllanadi.

Amaliy-predmetli sohada jamiyat talablarini hisobga olib, o'zini va o'z o'quvchilarining o'tmish va hozirgi zamon umuminsoniy hamda milliy madaniyatiga qo'shilib borishi hamnafasligida o'z pedagogik faoliyatini tashkil etish, ta'lif va tarbiyaning innovatsion shakl va metodlarini ishlab chiqish va qo'llashdagi ijodiy faoliytni qo'llab-quvvatlash, jamoada samarali mehnat qila olish, hamkorlik va ustozlik malakasi rivojlandi.

Ekzistensial sohada o'z xatti-harakatlariga ongli munosabatda bo'lish, axloqiy jihatdan o'z-o'zini mukammallashtirib borishga intilish, o'ziga va o'zgalarga muhabbat, tanasining, nutqining, qalbining go'zalligiga e'tibor qaratish, odob-axloqli bo'lish shakllanib bordi. Bu soha insonga boshqa insonlar bilan ma'lum munosabatlarga kirishishida yordam beradi. Bu insonning o'z munosabatlarini boshqara olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Individning olam bilan munosabatga kirishishidagi nuqtayi nazari va maqsadlari hayotni anglash bo'yicha ma'naviy faoliyatni tashkil etishga ham ko'maklashadi.

**2. Ijtimoiy-pedagogik moslashuvi modeli.** Uning mazmuni o'quvchilarda pedagoglik kasbiga doir qadriyatli munosabatlarning shakllanganligi bilan aniqlanadi va quyidagi tarkibiy qismlar asosida amalga oshiriladi.

1. Ehtiyoj-rag'bat (kasbni, pedagogika kollejlaridagi ta'lif jarayoni va boshqalarni tanlashdagi sabablar).

2. Kognitiv-hissiy (pedagogik bilim va malakalar, umummadaniy tay-yorgarlik, pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli tasavvurlar, hissiy kechinmalar va fikrlar).

3. Ruhiy-ma'naviy (eng oliv ma'naviy ehtiyojlar va qadriyatlar tizimi, ma'naviy-axloqiy yuksalish).

Ajratilgan tarkibiy qismlar o'zaro bog'liq holda sabablar va ehtiyojlar shaxs faoliyatining yo'nalganligini, bilimi va malakalar egallanishi asosida aniqlab beradi, ma'naviy-axloqiy tarkibiy qism esa intellektni, voqelikni to'g'ri qabul qilish, kasbiy yo'nalganlikni aniqlovchi qadriyatli tasavvur-larni, qiziqishlarni belgilab beradi.

Barcha tarkibiy qismlar yaxlit bir tizimni tashkil etishi kerak: alohida olinganda esa, ular faqtgina xususiy vazifalarni hal qila olishga qodir. Ularning jamlanmasi maqsadga erishishga – o'quvchilarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi jarayonida pedagoglik kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishga imkon yaratadi.

3. Amaliy-yo'naltirilgan model o'z shaxsiy va kasbiy salohiyatini hayot darajasini ko'tarish maqsadida amalda foydalana olishga qodir avlodni yetishtirishga yo'naltirilgan. Uni amalga oshiruvchilar, nafaqat tahsil olayotgan o'quvchilar va murabbiylar, balki mahalliy jamoadagi asosiy ijtimoiy guruhlarning boshqa vakillari, ya'ni ota-onalar, mahalliy aholi, jurnalistlar, madaniyat muassasalari xodimlari, tadbirkorlar, hukumat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlaridir.

Ushbu modelga nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyatning mutanosibligi asos bo'lgan.

Mazkur yondashuv o'quvchilarning shaxs sifatida va kasb bo'yicha rivojlanishi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtiroklarini ko'zda tutadi.

Asosiy tamoyil – o'quvchilarни quyidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish bo'yicha rag'batlantirgan holda jaib qilish:

- a) shaxsiy va kasbiy rivojlantirish;
- b) kasbiy-pedagogik muammolar bo'yicha loyihibar;
- v) ma'lum turdag'i muammolar bo'yicha loyihibar.

Ushbu model quyidagi fikr bilan asoslanadi: pedagogik ta'sirning samarali rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi kuchga ega bo'lishining sharti shundaki, u shaxsnинг o'zida ichki ijobiy reaksiyalarni keltirib chiqarishi va uni ma'lum bir faoliyatda qatnashishi hamda o'z ustida ishlashida faollikka ruhlantirishi lozim.

4. Faoliyatli-munosabatli model o'quvchi shaxsini turli faoliatlarga qo'shilishi g'oyasiga asoslanadi. Pedagogik munosabatga kirishishga taklif etilgan (yoki mustaqil tanlangan) faoliyat turlari o'quvchilarida ijobiy reaksiya uyg'otishi va ularning ushbu faoliyatlardagi qizg'in ishtiroklari yo'li bilan hosil qilinadi. SHuningdek, u o'quvchining kursdoshlari, murabbiylar, maktab o'qituvchilarini va o'quvchilarini, maktab va kollej rahbariyati, maktab-dan tashqari muassasalar xodimlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishni ham nazarda tutadi.

Faoliyatli-munosabatlari yondashuv modeli o'quvchilar faolligini oshirish sabablari va metodlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Shuningdek, faoliyatli-munosabatlari yondashuvda uni hayotga tatbiq qilishning usullari ham ko'rsatilgan. Ular quyidagi larda namoyon bo'ladi:

a) faoliykinning yuzaga kelish sabablarini aniqlashtirish, ya'ni o'quvchi turli vaziyatlarda duch keluvchi va uni o'z ustida ishlashga majbur qiluvchi, erishilgan va zaruriy daraja (bilim, madaniyat, rivojlanish) orasida qarama-qarshiliklarning mavjud bo'lishini aniqlashda;

b) mazkur qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarish va shu orqali ularni ruhlantirish uchun murabbiy tomonidan pedagogik vaziyatlar metodini qo'llash zaruriyatini ko'rsatishda.

Bu qarama-qarshiliklarni his qilish va to'liq anglash asosida shaxsda uning qizg'in faoliyatining rag'bati sifatida ehtiyoj, motiv va maqsadlar shakllanadi.

Faqat shaxsning ehtiyoj-rag'bat sohasini rivojlantrib va unda sog'lom ehtiyojlarni, qiziqishlarni va faoliyat (xulq-atvor) motivlarini vujudga kelishi uchun zarur sharoit yaratibgina o'quvchining faolligini ruhlantirish va zaruriy pedagogik samaraga erishish mumkin.

**5. Ijtimoiy faoliyat modeli** pedagogik tizimda ta'lif va tarbiyaning alohida muhitini – o'quvchilarning hayoti va faoliyati uchun jamiyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitni qayta hosil qilib beruvchi muhitni modellashtirishni ko'zda tutadi. Shuning bilan birga, pedagog va guruhning faol qismi tomonidan maxsus yo'naltiriladigan vositalar va ularni takomillashtirish bo'yicha bunyodkorona faollik ham tarbiyada ishtiroy etadi.

**6. Faol-izlanishli model.** Modelning mazmunini o'quvchilarning mustaqil o'quv va tadqiqot ishlariga amaliy va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qidiruv-mazmun faoliyatini tashkil qilish orqali kasbiy-ma'naviy xarakter berish hamda o'rganilayotgan fan yoki kelajakdagi kasb faoliyati bilan bog'liq fanlar doirasida murabbiy bilan hamkorlikda kasbiy muammoviy mazmunga ega vaziyatlarni loyihalashtirish va ularni mustaqil hal qilish tashkil etadi.

**7. Madaniy-genetik model.** Mazkur model madaniy genetik jarayon negiziga qurilib, unda o'qituvchi rahbarligida hamda mustaqil ta'lif olish bilan bog'liq ta'lif shakllari asos sifatida olingan hamda bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda zamonaviy ta'lif turi sifatida masofali ta'lif texnologiyasi ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan modelga ko'ra pedagogik, texnik-texnologik muammoli vaziyatli topshiriqlar bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda pedagogik hamda mutaxassislik turkumi fanlari uyg'unligini ta'minlab, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini yuqori sifat darajasiga ko'taradi.

**8. Masalali-faoliyatli model.** Masalali-faoliyatli modelda ta'lif mazmuni uch darajada: tayanch kompetentlik (o'quv rejasidagi barcha blok

fanlari uchun); fanlararo kompetentlik (o'quv rejasidagi bir blok fanlari to'plami uchun); predmet doirasidagi kompetentlik (o'quv rejasidagi bitta fan uchun) shaklida keltirilgan.

## **2.2. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi**

Pedagogika kollejlardida umumta'lim fanlarini kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitish hamda umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning lokal-modulli texnologiyasi ishlab chiqildi. Mazkur texnologiya uch bosqichni o'z ichiga qamrab oldi: motivatsion, kommunikativ va tashkiliy (2.2.1-jadval).

### **Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi mazmuni**

2.2.1-jadval

| <b>Bosqichlari</b> | <b>Ijtimoiy-madaniy malakalar</b>  |
|--------------------|--|
| Motivatsion        | <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'qishga va kasbiy faoliyatga ichki yo'nalghanlik;</li> <li>– yaxshi o'qish, yangi bilimlarni egallashga qiziqish;</li> <li>– tashabbuskorlik;</li> <li>– ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga tayyorlik;</li> <li>– ijtimoiy-madaniy faoliyat ehtiyoji;</li> <li>– pedagogik faoliyatning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini anglash.</li> </ul>                                     |
| Kommunikativ       | <ul style="list-style-type: none"> <li>– boshqalar bilan muloqotdagi kelishuvchanlik;</li> <li>– kirishimlilik;</li> <li>– shaxslararo qarama-qarshiliklardan chiqib ketishga qobiliyatlichkeit;</li> <li>– o'z hissiyotlarini nazorat qila olish;</li> <li>– muloqot jarayonida suhbатdoshini tushunishga harakat qilish</li> </ul>   |
| Tashkiliy          | <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'z-o'zini rivojlantirish;</li> <li>– o'z-o'zini namoyon etish;</li> <li>– kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik;</li> <li>– ijtimoiy-madaniy faoliyatni loyihalashtirish;</li> <li>– ijtimoiy-madaniy xulq-atvor malakalarini egallash;</li> <li>– maqsadga erishish bosqichlarini aniqlay olish;</li> <li>– kasbiy faoliyatga va «boshqalar shaxsiga» yo'nalghanlik</li> </ul> |

Pedagogika kollejlardida malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllan-

tirishga doir quyidagi shakl va metodlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq:

**1. Intellektual o‘yinlar** Pedagogika kolleji o‘quvchilarini madaniy va kognitiv-ijodiy rivojlantirish jarayonida intellektual o‘yinlar katta imkoniyatlarga ega. Ular o‘qitish usulini tanlash talabiga – tinglovchilarning o‘qubilish faoliyatini faollashtirish zaruratiga mos keladi. O‘quv jarayonida ta’lim olayotganlarning faol fikriy va amaliy faoliyati o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ta’lim olayotganlarni o‘quv jarayonida faol o‘qubilish faoliyatiga bevosita jaib etish faol o‘qitish usuli deb nomlangan tegishli usul va uslublarni qo‘llash bilan bog‘liq.

Intellektual o‘yinlar o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida ishtirot etadi.

Intellektual o‘yin – cheklangan vaqt va bellashuv sharoitida mahsuliy fikrlashni tatbiq etishni talab qiluvchi topshiriqlarni yakka tartibda va jamoa bo‘lib bajarish. Intellektual o‘yinlar o‘zida o‘yinli singari, o‘quv faoliyatini ham birlashtiradi. Ular tushunchalarni shakllantirish, asosiy fikrlash operatsiyalarini bajarishni talab etgan holda nazariy fikrlashni rivojlantiradi (tasniflash, tahlil etish, umumlashtirish va boshqalar).

Ushbu o‘yin turining pedagogik ma’nosи, uning tashqi maqsadi – g‘alabaga erishish yechimni izlash va qabul qilish jarayoni bilan qiyoslaganda ikkilamchi ahamiyat kasb etishidan iborat.

Intellektual o‘yinlarni olib borishning zarur sharti tamoyillarga rioya qilish hisoblanadi: baholiqudratlik va ma‘lum murakkablikni moslashtirish – topshiriqlarni tajrijiy qiyimlashtirish; o‘quvchilarning tahviliy faoliyatini faollashtirishga yetaklovchi qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish operatsiyalarini kiritish; «bilimlar ko‘chirish» operatsiyalarini yangi vaziyatga kiritish; topshiriqlarni o‘quvchilarning qiziqishlari va hayot tajribalari bilan bog‘liqligi.

Intellektual o‘yinlarni o‘tkazishning majburiy sharti nodirektiv ko‘rsatmalashtirish hisoblanadi – u o‘yin qoidalarini tushuntirishga, uni tayyorlash, o‘tkazish, o‘yinchilarning xulq-atvor etikasi bo‘yicha taktik mulohazaga taalluqli. Ko‘rsatma va maslahatlarning bilvosita xarakteri ishtirokchilarga o‘z harakatlari uchun javobgarlik, shaxsiy mustaqillikni anglash imkoniyatini beradi, bu esa ularning faolligi va lotin tili va antik madaniyatga qiziqishini oshirishning jiddiy rag‘bati hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida ikki turdag'i intellektual o‘yinlardan foydalanildi:

- og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishga doir;
- bilish faolligini rivojlantirishga doir.

### *Og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishga doir o‘yinlar*

«*Gapni davom ettiring» o‘yini.* Boshlovchi o‘yin ishtirokchilariga jumlani taklif etadi. O‘quvchilar navbat bilan uni davom ettirishga doir o‘zining variantini taqdim etadi. O‘yin ishtirokchilar jumlani davom ettirishga doir so‘nggi variantni taqdim etishlariga qadar o‘tkaziladi. So‘nggi fikrni aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Xulosa: mazkur o‘yin o‘quvchilardan og‘zaki va yozma nutq malakalarini talab etadi. U o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tahlil etishni o‘rgatadi, fikr yuritish, xotira va diqqatni mustahkamlaydi.

«*Surat ustida suhbat» o‘yini.* O‘yin ishtirokchilariga ikki guruhga bo‘linishadi. Topshiriq: hikoya ko‘rinishida taqdim etilgan suratni tavsiflash. O‘yin jihozi sifatida moddiy va ma’naviy madaniyatni aks ettiruvchi rasmlar xizmat qilishi mumkin. Hikoya qilishda qarama-qarshi guruh tomonidan taqdim etilgan so‘zlardan foydalanish talab etiladi. O‘yin jarayonida mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantirish mashq qilinadi.

### *Bilish faolligini rivojlantirishga doir o‘yinlar*

Mazkur tasnifning unchalik murakkab bo‘lmagan turiga ikki-besh javob variantlaridan erkin tanlov asosida to‘g‘ri javobni ajratib olishga yo‘naltirilgan intellektual test o‘yinlarini kiritish mumkin. Ushbu turdag'i intellektual o‘yinlarning o‘ziga xosligi o‘quvchilarning katta tayyorgarlikka ega bo‘lmagan holatida ham muvaffaqiyatga erishuvi va murakkab topshiriqlarning bajarilishini osonlashtirishdan iborat.

Bilish faolligini rivojlantirishga doir intellektual o‘yinlarning bir oz murakkabroq turiga «G‘ayritabiyy holat» tarzida o‘yinlarni kiritish mumkin. Mazkur o‘yinlarda tahlil etilayotgan obyekt haqidagi aniq ma’lumotlarni ketma-ketlikda bayon etish talab etiladi. Guruh (o‘yin ishtirokchisi) g‘ayritabiyy holatni qanchalik tez aniqlasa, shuncha ko‘p ball to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur o‘yinlarda odatda, sakkiz-o‘n masalalarni tahlil etish mumkin. Ushbu turdag'i o‘yinlar o‘quvchilarni noma'lum orasidan to‘g‘ri yechimni topishga o‘rgatib, algoritmik va alternativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Nisbatan kam ommalashgan bilish faolligini rivojlantirishga doir o‘yinlarga shartli nomlanishga ega «tushirib qoldirilgan so‘zni aniqlang» va «ro‘yxatni qayta tiklaymiz» («Fikr qayerdan olingan?», «Turli tilda gaplashamiz») kabilarni kiritish mumkin.

Biroq mazkur turga taalluqli asosiy o‘yinlarga «Breyн-ring» va «Nima? Qachon? Qayerda?»ni kiritish mumkin.

## *2. Loyihaviy faoliyat.*

O‘quvchilar o‘qituvchilari bilan hamkorlikda «Sayohat» loyihasi ishlab chiqilgan va o‘tkazilgan bo‘lib, u quyidagi variantlarni o‘zida aks ettiradi:

- Ta’lim muassasalariga sayohat
- Madaniy obyektlarga sayohat.
- Virtual ekskursiya.

Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida ayniqsa, virtual ekskursiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratdik.

Virtual ekskursiya xilma-xil axborot manbalaridan foydalangan holda o‘quvchilarni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash jarayonida ularning o‘zaro birgalikdagi harakatga tayyorlashga yo‘naltilgan pedagogik vositani o‘zida aks ettiradi.

An‘anaviy ekskursiyalardan farqli ravishda virtual ekskursiyalar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, maxsus jihozlangan o‘quv xonalrida o‘tkaziladi. Mazmuniga ko‘ra virtual ekskursiyalar o‘rganilayotgan mavzuga mos ravishda tashkil etiladi, shuning uchun o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashini boyitish va kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, ana shunday virtual ekskursiyalar I-Toshkent pedagogika kolleji o‘quvchilari bilan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida «Toshkent ma’naviyat o‘choqlari» mavzusida tashkil etildi. Mazkur jarayonda har bir o‘quvchining alohida madaniy obyektlar haqida ma’lumotlarni o‘rganishlari vazifa sifatida belgilandi. Virtual ekskursiyani tashkil etishga doir mashg‘ulot bir nechta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar bilan hamkorlikda ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ekskursiyaning maqsadi aniqlandi va obyektlari belgilab olindi. Ushbu ekskursiyaning maqsadi sifatida Toshkent shahrida joylashgan madaniy obyektlar, ulardagi moddiy va ma’naviy qadriyatlар haqidagi qo‘srimcha ma’lumotlarni o‘rganish asosida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish belgilab olindi.

Ikkinci bosqichda Internet vositasida o‘quvchilar mustaqil ravishda obyektlar to‘g‘risidagi axborotlarni izlashdi, ularni o‘rganib, tahlil etish asosida ma’naviyat o‘choqlari haqidagi tayyorlanadigan ma’ruzaning rejasini tuzishdi. So‘ngra ko‘rgazmali materiallar asosida taqdimot yaratishdi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda har biri o‘zi tayyorlagan ma’ruzaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish maqsadida sinov tariqasidagi taqdimotlarni o‘tkazishdi. So‘ngra umumiy o‘rta ta’lim maktabalaridan taklif etilgan o‘quvchi-ekskursantlar bilan birga o‘quvchilar virtual ekskursiyani amalga oshirishdi. Ekskursiyaga jalb etilgan o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berishdi.

### **3. Mustaqil ish.**

O‘quvchilarni dastlabki ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalaridan biri sifatida hozirgi vaqtida shaxsning mustaqil ta’lim olishi va o‘zini-o‘zi takomillashtirishning ma’lum ahamiyati, shuningdek mustaqil intellektual va ma’naviy izlanishni rivojlantirish vositasi sifatida ularning mustaqil kamol topishga tayyorlash, o‘z vaqtini tashkil qilishni bilish, ijodiy ko‘nikma, tashabbuskorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Fan va ta’lim amaliyotida «Mustaqil ish» tushunchasi va uning mazmuni to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas. Shaxsiy pedagogik tajriba, ushbu masala bo‘yicha pedagogik qarashlar tahlili, mustaqil ish tushunchasini ikki ma’noda ta’riflash mumkinligini tasdiqlash imkonini beradi:

- o‘quvchining faol ijodiy faoliyati sifatida, uning zamirida «mustaqillik, mustaqil fikrlashga ehtiyoji va uquvi, yangi vaziyatga yo‘naltirish qobiliyati, savol, masalani, vazifani o‘zi ko‘ra-bilishi hamda ularning yechimiga yondashuv izlash» yotadi. Bunday tushunish mustaqil ishni ijodiy ish bilan yaqinlashtiradi;
- o‘quvchining ijodiy faoliyati sifatida, uning tarkibiga nafaqat bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo‘yicha uyda mustaqil tayyorlanish, balki mashg‘ulotlari yig‘indisi, shu jumladan ma’ruza tinglash, konspekt yozish uquvi ham kiritiladi.

O‘quvchi tomonidan mustaqil ishni tashkil etishda belgilovchi tezis, bilimlarni o‘zlashtirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish garchi o‘zaro bog‘liq bo‘lsada, lekin avtomatik tarzda mos kelmaydi, bu esa fikrlash uquvi o‘zlashtirilgan axborotlar miqdoridan tashkil topmaydi, u inson miyasida faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga keladi.

O‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqilning ishning roli, fikrimizcha uni to‘g‘ri tashkil qilishdan iborat. Ushbu tasdiqqa ko‘ra biz mustaqil ishni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishda faqatgina o‘quvchilarning mustaqilligi emas, balki o‘qituvchining rahbarligi ostida o‘qitishning tashkiliy tizimi sifatida ko‘rib chiqamiz. Mazarur holatda pedagog bilim berishdan tashqari o‘quvchilarning harakatlarini boshqaradi, ularning mustaqil ta’lim faoliyatida maslahat beradi. O‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyat turlari sohasiga biz quyidagi turlarni kiritdik:

- mustaqil ish;
- uyda mustaqil tayyorlanish;
- auditoriyada o‘qitish jarayonida mustaqillik.

O‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha biz qo‘llagan tizim tajriba davomida kompleks xarakterga ega bo‘ldi, chunki biz o‘quvchilarning intellektual taraqqiyotiga yanada muhim va ijobjiy ta’sir etuvchi sifatida ajratgan bir necha mustaqil faoliyat sohalariga taalluqlidir. Bu – kitob bilan ishslash, uy vazifasini bajarish, mustaqil ishni bajarish tartibi

algoritmiga ega bo‘lish, mustaqil ish sifati va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish shakliga ta’sir etuvchi omillar hisobidir.

### *Mustaqil ish turlari*

#### *I. Kitob bilan ishlash.*

Pedagogika kollejining birinchi kurs o‘quvchisida ko‘pincha mustaqil ish samaradorligi va yaxshi sifatini ta’minlovchi aqliy mehnatni tashkil etish shakllarini topish imkonini kamroq bo‘ladi. Ma’lumki, har bir o‘quvchida maktabga kelgan davrida ma’lum odatlar, ko‘nikma, darslik bilan ishslash uslubi shakllanadi. Biroq, birinchidan, ular ba’zan to‘liq shakllanmagan bo‘ladi, ikkinchidan esa pedagogika kollejida tahsil olish uchun yetarli emas, bunda kengroq va murakkabroq o‘quv materiali ustida chuqurlashtirilgan ish olib borish talab etiladi.

#### *II. Uy vazifasini bajarish.*

Buning uchun birinchi kurs o‘quvchisiga vaqt resurslaridan to‘g‘ri va tejamli foydalanishni bilish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir fan ustida ishning puxta o‘ylangan jadvalini tuzish zarur. Bunda darslarni vaqt bo‘yicha taqsimlashga asosan ikkita qat’iy yondashuv mavjud bo‘lishi mumkin:

birinchi yondashuv – mustaqil ish jadvali ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlardan kelib chiqqan holda tuziladi. Ya’ni mustaqil ish keyingi kun darslariga tayyoragarlik sifatida olib boriladi. Mazkur holatda yuklama ko‘pincha notejis taqsimlanishi mumkin.

Ikkinci yondashuv – hafta kunlariga yuklamaning teng taqsimlanishi.

#### *III. Mustaqil ish tartibi algoritmi:*

- o‘rtacha murakkablikka ega material;
- eng murakkab material;
- sodda tuzilishga ega material.

#### *IV. Intellektual-bilish masalalarini hal etish algoritmi*

Fikrlash jarayonining boshlanishi – masala, muammoning qo‘yilishi, biror noma’lum, notanish narsani topish zarurati mavjudligi:

- hal etish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash;
- izlash, tushunish, aniqlash lozim bo‘lgan noma’lum elementni anglash.

Masalani hal etish jarayoni:

1. Ma’lumotlar tahlili – nima berdi, nima ma’lum, nimaga ega bo‘linadi?

2. Ma’lumotlar quyidagicha qiyoslanadi:

- bir-biri bilan;
- avvalgi tajribasi bilan;
- qo‘yilgan masala bilan.

3. Yangi materialni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatli foydalanilgan tamoyillarni jalb etishga harakat qilish.

4. Farazning yuzaga kelishi – to‘g‘ri harakat usuli, yechim yo‘lini aniqlashga urinish.

5. Farazni amaliy tekshirish.

6. Xato harakatlardan dalolat beruvchi salbiy natija olish holatida yangi farazlarni izlash.

**V. Mustaqil ishning sifatiga ta’sir etuvchi omillar:**

– o‘quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishda (ayniqsa past o‘zlashtiruvchi, mustaqil ishslash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan) o‘qituvchining ishtirot etishi, rahbarlik qilishi;

– o‘qituvchi tomonidan murakkabroq masalalarning tushuntirib berilishi;

– dars yakunida mustaqil ish topshirig‘ini tushuntirib berish – qanday mavzu (masala), qanday hajmda, uni qanday o‘rganish kerak?;

– bajarishni nazorat qilish;

– o‘quvchilar tomonidan foydalanilgan mustaqil ishslash usullari, natijalarini tuzatish;

– turli nazorat usullaridan foydalanish:

a) o‘quvchilar tomonidan turli murakkablik darajasiga ega topshiriqlar keltirilgan kartochkalarni to‘ldirish;

b) yaxshi o‘zlashtirilgan o‘quvchilar past o‘zlashtirganlarning topshiriqlarini tekshiruvchi sifatida ishtirot etishi;

d) o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar tomonidan biror-bir materialni tushuntirib berish.

**VI. O‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish shakllari:**

– jamoaviy: aralash dars, seminar-dars, laboratoriya-darsi;

– guruhiy: 3-4 kishidan iborat kichik guruhlarda ishslash;

– yakka tartibda: turli mashqlarni bajarish;

– individuallashtirilgan: referat, ma’ruzalarni tayyorlash.

Korreksion ishlar jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish quyidagi metodikalar yordamida amalga oshiriladi.

**I. Ijtimoiy makonni anglash va o‘zlashtirish.** Bu yo‘nalish asosida pedagogika kolleji o‘quvchilari – bo‘lajak o‘qituvchilar oldida munosabatlar orqali ijtimoiy makonni ochib berish tamoyili yotadi; bunda dunyoga o‘zgacha munosabatlar namoyon bo‘ladi va shaxs ijtimoiy tanlov maqomiga ega bo‘ladi, ko‘rganlarini anglab yetadi, shu sa’y-harakatlar mobaynida u rivojlanish bosqichlari bo‘ylab ilgarilaydi.

Ijtimoiy makonni bilvosita va bevosita kengaytirish: a) texnik vositalar, kitoblar, fotosuratlar, badiiy asarlar, ilmiy tavsiyflar vositasida; b) boshqalar bilan: u mehmon, ma’ruzachi, vakolatli shaxs yoki tasodifiy hamroh, kutilmagan suhbatdosh bo‘lsin, uchrashuv va suhbatlar orqali amalga oshirildi.

Mazkur vaziyatda pedagogning roli quyidagilardan iborat: o‘quvchilarga hayotning yangi yoki g‘ayriodatiy tomonlarini ahamiyatlilik hamda

qadriyatlilik nuqtayi nazaridan idrok etish va baholash, ko'maklashish, yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish.

Pedagogik shart-sharoitlari: ta'lim-tarbiya tizimi asosi sifatida ta'lim-tarbiya makonining barcha o'quvchilar uchun dinamikligini saqlab qolish.

Umumiy tarbiyaviy natija: hayotni barcha sohalaridagi o'zgarishlarni qabul qilish, bo'lajak o'qituvchilarning hayotiy tanlovga tayyorligini shakllantirish.

**II. Muhitli metod.** Bu metod ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning ehtimoliy pedagogik usuli sifatida quyidagi tarzda qo'llaniladi:

- mazkur jarayonni yuzaga keltirishda jalb qilingan hayotning turli sohalaridan foydalaniлади: tabiat, jamiyat, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy hayot, kishilar o'rtaсидаги munosabatlar;

- zamonaviy madaniyat nuqtayi nazaridan turib muhit bilan keng hamkorlikka yo'nalghanlik ta'minlanadi: obyektlar o'rganildi, atrofdagi hayotga ilmiy qarashlar anglashildi, dunyoga qarashlardagi tafovutlar o'rganildi va Yerda hayotning tuzilishi tafovutlar bilan berilganlik sifatida qabul qilinadi;

- harakatlari va xulqi muhitning tarkibiy qismlari bo'lgan subyektning faol nuqtayi nazari taklif qilinadi;

- yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, haqiqat va yolg'onning sinkretik birligi ta'kidlanadi;

- o'smirning e'tibori «Men» insонning va uning atrofidagi dunyoning aloqalariga qaratiladi, dunyoga qadriyatli munosabatlar, erkin tanlash vaziyati yaratiladi.

Shuningdek, korreksion ishlar jarayonida «Konfliktli vaziyatni tahlil etish texnologiyasi» va «O'rgatuvchi laboratoriya» treninglaridan ham foydalanish mumkin. Treningning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarda muloqot va takning samarali usullarini rivojlantirishdir.

«O'rgatuvchi laboratoriya» muloqot va xulqning yangi samarador shakllarini izlash va o'zlashtirilganlarini mustahkamlashni anglatadi. U o'zaro bir-biriga bog'langan ikki tarkibiy qismdan iborat.

1. Amaliy-mazmuniy qism – bo'lajak o'qituvchilarni bevosita tajribaga, samarali natijalarga erishishni jalb qilish.

2. O'rgatuvchi qism quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- o'zi (qarashlari, ustakovkalari, baholari, xulq-atvori va muloqoti) haqidagi tasavvur – harakat – aks aloqa – o'zi haqida yangi tasavvur – yangi harakat – aks aloqa;

- boshqa kishilar haqida tasavvur – harakat (aloqaga kirishish) – aks aloqa (ijobiy yoki konfliktli) – muloqotning barqaror bo'lmagan omillarini korreksiyalash – kommunikatsiyaning yangi darajasiga ko'tarilish.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishga ko'maklashuvchi o'ziga xos kommunikativ malakalarni rivojlanish:

- xulqini (o‘zining va boshqalarning) tavsiflash;
- kommunikativ-psixologik holatni baholash – verbal vositalar yordamida o‘zining ichki holati haqida obyektiv xabar berish.

«Konfliktli vaziyatni tahlil etish texnologiyasi» va «O‘rgatuvchi laboratoriya» metodika-treningi, suhbatlar jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentlik va uning ko‘rinishlarini, o‘zining ijtimoiy-madaniy sifatlari hamda kamchiliklarini tushunish va anglashiga ko‘makkashadigan quyidagi omillar aniqlandi:

1. Inson madaniyati va psixikasi rivojlanish sohalari. Zero, ijtimoiy-madaniy kompetentlik:

- insonning madaniyati;
- uning ehtiyojlari;
- uning qiziqishlari;
- uning xarakteri va temperamenti;
- uning odatlari;
- fikrlash xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

2. Shaxsning turli sohalari rivojlanishi:

a) *intellektual* – fikrlash faoliyati tipi, ya’ni inson (o‘quvchi) voqelikni qanday idrok etishi, muammolar, g‘oyalarni qay tarzda anglashi hamda qanday qarorlar qabul qilishi:

- ayrimlari hodisa, faktlarni umumlashtirib, tahlil qilib fikrlaydi;
- boshqasi chuqur va har tomonlama fikrlaydi;
- uchinchisi hodisalarни shunchaki idrok etadi, sabablari va oqibatlari haqida o‘ylamaydi;
- biri muhim deb bilgani holda boshqasi xuddi shuni ikkinchi darajali deb biladi va boshqalar.

b) *qadriyatli yo‘nalganlik* – bu insonning ideali, uning hayotiy rejalari, maqsadlari, qiziqishlari, ro‘y berayotganlarga bahosi;

d) *axloqiy* – inson amal qiladigan ma’naviy me’yorlar. Bu holda insonning yaxshilik yo yomonlikka, adolat yo adolatsizlikka yo‘nalganligi (orientatsiyasi), rivojlangan yo rivojlanmagan burch hissi, o‘zini mas’uliyatli yo mas’uliyatsiz tuta olish odati namoyon bo‘ladi;

e) *estetik* – bu insonning didi, go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, kulgili va fojiaviylikni idrok etish xususiyatlari. Bu holda insonga nima va nima sababdan yoqishi belgilanadi;

f) *emotsional* – insonning emotsiyonal kayfiyatini: quvondi, g‘am, ko‘tarinkilik, tushkunlik, xotirjamlik yoki ta’sirlanish, beg‘amlik yoki xavotirlilik, tinchliksevarlik yo tajovuzkorlikni ifoda etadi.

Umuman olganda, o‘quvchilarini faol izlanishli faoliyatga jalb etish orqali auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish muvaffaqiyatli amalgamoshiriladi.

## XULOSA

Kompetentlik – bu o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Kompetentlik – shaxsnинг muayyan ta‘lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – bu bo‘lajak o‘qituvchining umumta‘lim va mutaxassislik fanlaridan o‘zlashtirgan muayyan bilim, ko‘nikma va tajribasini ijtimoiy-madaniy sohadagi aniq vaziyatlardagi muammo va vazifalarni yechishga qodirlik.

Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash, taklif qilingan yangi ijtimoiy-madaniy talablar va ularning amalga oshirilishiga doir mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qibiliyati ko‘rsatkichi, shaxsiy qiziqishlarning aniq bo‘lajak kasbiy tayyorgarlik, ta‘lim muassasasi, jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liqligining namoyon bo‘lishi hisoblanadi. U axloqiy madaniyat, ideallar, ma‘naviy qadriyatlarni tavsiflaydi. Bo‘lajak pedagoglarda uslubiy tayyorgarlikni mustaqil loyihalashtirishga ijtimoiy tayyorlik tarkibiy qismi rivojanishini harakatga keltiruvchi kuchlar bo‘lib yuqori axloqiy ehtiyojlar va umumshaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish dalillari; faol hayotiy pozitsiya; doirasida hayot tushuniladigan o‘z asl vazifasini topish va u haqda qayg‘urish «to‘g‘ri yo‘l» hissi, aynan shunday o‘zini amalga oshirish zaruriyatiga ishonch bilan kuzatiladigan kechinma hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning umummalakaviy kompetentsiyalari shaxs sifatida ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lish, jamiyatning faol a‘zosi sifatida mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari mazmuniidan xabardor bo‘lish, zamонавиyl talablar asosida o‘z mehnat faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kabilarni qamrab olsa, umumkasbiy kompetentsiyalar esa, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, maxsus metodik tayyorgarlik va innovatsion tayyorgarlikka doir bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini o‘z kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olishni talab etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning qator modellari mayjud bo‘lib, ular orasida ijtimoiylikka yo‘naltirilgan model, ijtimoiy-pedagogik moslashuvi modeli, amaliy-yo‘naltirilgan

model, faoliyatli-munosabatli model, ijtimoiy faoliyat modeli, faol-izlanishli model, madaniy-genetik model, masalali-faoliyatli model kabilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Pedagogika kollejlarida umumta'lim fanlarini kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitish hamda umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning lokal-modulli texnologiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur texnologiya uch bosqichni o'z ichiga qamrab oldi: motivatsion, kommunikativ va tashkiliy. O'quvchilarni faol izlanishli faoliyatga jalb etish orqali auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. – T.: O'zbekiston, 1992. – 71 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 46 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996. – 88 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T.: O'zbekiston, 1997. – 315 b.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – 36 b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000. – 376 b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'lli. -T.: O'zbekiston, 2007. – 47 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009. – 59 b.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
11. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
12. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.31-61.
13. Milliy istiqlol royasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T.: O'zbekiston, 2001. – 80 b.
14. Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
15. Davletshin M.G. Zamonaviy mакtab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.
16. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 288 с.
17. Кукушкин В.С., Столяренко Л.Д. Этнопедагогика и этнопсихология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2000. – 443 с.
18. Культура, нравственность, человек. – Т.: Фан, 1991. – 98 с.

19. Личность. Культура. Этнос/ Под ред. А.Л.Белика. – М.: Смысл, 2001. – 533 с.
20. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – М.: Академия, 2003. – 200 с.
21. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: АСАДЕМЯ, 2006. – 205 с.
22. Ochilov M., Ochilova N. O'kituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 132 b.
23. Ochilov.M. Muallim – qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.429 b.
24. Сластёин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч.– М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.2. – 256 с.
25. Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 479 с.
26. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 448 с.
27. Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b.
28. Xalilova Sh.T. Jahon tillarini o'rganish jarayonida talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2008. – 310 b.
29. Харламов И.Ф. Формирование личностных качеств в процессе воспитания// Педагогика. – М., 2003.- № 3. – С.52-59.
30. Храмцова Ф.И. Формирование гуманистической культуры у подростков в учебно-воспитательном процессе общеобразовательной школы: Автoref. дис. ... канд. пед. наук.. – Минск, 2002. – 26 с.
31. Egamberdieva N.M. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylash-tirishning zamonaviy yo'naliishlari. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 48 b.
32. Egamberdieva N.M. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylash-tirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 56 b.
33. Yarmatov R. Bo'lajak o'kituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlanirish. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 128 b.
34. Qurbonov Sh., Seythalilov E. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'naliishlari. – T.: Fan, 1999. – 193 b.
35. Quronboev M. O'quvchilar ma'naviy-ijtimoiy faoliyklarini rivojlanirishning pedagogik asoslari (jamoalar asosida): Dis. ... pedagogika fanlari nomzodi. – Toshkent, 1998.- 155 b.

## MUNDARIJA

|  |          |
|--|----------|
| <b>So‘z boshi.....</b>   | <b>3</b> |
| <b>I bob. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY<br/>KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY<br/>ASOSLARI</b>             |          |
| 1.2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida.....                  | 5        |
| 1.2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari.....   | 12       |
| <b>II bob. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY<br/>KOMPONENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY<br/>TEXNOLOGIK JIHATLARI</b> |          |
| 2.1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish modellari.....                                    | 26       |
| 2.2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi.....                                | 30       |
| Xulosa.....  | 39       |
| Foydalanilgan adabiyotlar .....  | 41       |

**NODIRA EGAMBERDIYEVA, ADXAMJON ABDURASHIDOV,  
NOZIMA MAMATOVA**

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA  
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI  
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015**

|                              |                  |
|------------------------------|------------------|
| Muharrir:                    | M.Hayitova       |
| Tex. muharrir:               | M. Xolmuhamedov  |
| Musavvir:                    | D.Azizov         |
| Musahhiha:                   | N.Hasanova       |
| Kompyuterda<br>sahifalovchi: | N.Rahmatullayeva |

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Тел: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 09.10.2015.

Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ . «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 2,5. Nashriyot bosma tabog'i 2,75.  
Tiraji 500. Buyurtma №138.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

C

ISBN 978-9943-990-37-1



A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-990-37-1.

**FAN VA  
TEKNOLOGIYALAR**